



**SHAROF RASHIDOV - VATANNING FIDOYI FARZANDI**

**X.M.Radjapboyeva**

ADTI Magistratura bo`limi tyutori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10776114>

**ARTICLE INFO**

Received: 22<sup>th</sup> February 2024

Accepted: 27<sup>th</sup> February 2024

Online: 29<sup>th</sup> February 2024

**KEYWORDS**

**ABSTRACT**

***“Sharof Rashidov umr bo`yi o`z xalqiga yaxshilik qilib yashadi”.***

**Sh. Mirziyoyev.**

O`zbekiston mustaqillikka erishganimizdan so`ng, ko`plab xalqimizni quvontiradigan o`zgarishlar ro`y berdi. Vatanning ziyoli vakillari, o`tmish tarixning yorqin vakillari qoralangan edi. Ijod ahli, siyosiy arboblari, jadidlar shu jumladandir. Tamg`a va og`riq bo`lgan tuhmatlardan ozod bo`lishi orzu edi. Istiqloq sabab bizning tariximiz zulmatdan yorug`lik tomon chiqdi, desak yanglishmagan bo`lamiz. Bizning zaminda xalq dardini o`zining dardi deb bilgan bir qancha fidoyi, vatanparvar, mard o`g`lonlari juda ko`p bo`lgan. Jumladan, Sharof Rashidov ham Vatanning elparvar farzandi bo`lgan. U Vatani ravnaqi uchun ulkan hissa qo`shgan, hurmat e`zozga loyiq bo`lgan fidoyi inson edi. Umrini xalqini turmushini, hayotini yaxshilash uchun yashadi, bor kuchi hamda sog`ligini ertangi kun taraqqiyoti, farovon hayotiga bag`ishladi.

Mamlakatimizda unitilmas sana, 2017-yil 27-mart, Prezidentimizning Shavkat Mirziyoyevning “Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100-yilini nishonlash to`g`risida”gi qaroriga ko`ra “Xalqning buyuk farzandi” nomli xotira kitobining nashr qilingani, Jizzax viloyatining Jizzax tumaniga Sharof Rashidov nomi berilgani, ushbu tumanda adib nomidagi memorial uy-muzeyi tashkil etilgani, adibning “Xalqimizning buyuk farzandi” nomli xotira kitobining nashr qilingani, Jizzax viloyatining Jizzax tumaniga Sharof Rashidov nomi berilgani, ushbu tumanda adib nomidagi memorial uy-muzeyi tashkil etilgani, adibning “Saylanma” kitobi ko`p ming nusxada nashr etilgani yuksak oqilona siyosatning ifodasidir. Faqat 2017 yilda uning tavalludiga 100 yil to`lish munosabati bilan Sharof Rashidov nomi tillarga qaytdi. Yirik tadbirlar, uchrashuvlar o`tkazildi. U tavallud topgan zaminda yodgorlik o`rnatildi, muzey tashkil qilindi. Asarlari qayta chop etila boshlandi.

Taniqli adib va yirik jamoat arbobi Sharof Rashidov 1917-yilning 6-noyabrda Jizzax shahri atrofida Sovungarlik qishlog`ida tavallud topdi. Otasi Rashid Halilov yetti pushti dehqon bo`lib suyagi mehnatda qotgan, umri qora mehnatda o`tganligiga qaramasdan oilasida



bilim olishga intilish juda kuchli edi. Sharof Rashidov 1924-yili 7 yoshida Jizzaxdagi yetti yillik Narimonov nomidagi 10- o'rtta maktabning birinchi sinfiga qabul qilindi. Bu maktabda turli yillarda atoqli shoir Hamid Olimjon, yozuvchi Nasrullo Oxundov, akademik O'ktam Oripov, O'zbekiston xalq yozuvchisi Nazir Safarov, dramaturg va davlat arbobi Sarvar Azimov, taniqli bolalar shoiri Shukur Sa'dulla kabi taniqli insonlar tahsil olishgan.

Ma'lumotlarga ko'ra Sharof Rashidovning xotirasi o'tkir bo'lib, fanlarni juda yengil o'zlashtirgan. 1932-yili maktabni bitirgach, Jizzax pedagogika texnikumiga o'qishga kirdi. Texnikumda u nafaqat a'lochi talaba, balki yaxshigina tashkilotchi sifatida ham namoyon bo'ldi: u texnikum kasaba uyushmasiga rais etib saylandi. Shu yillari Sharof Rashidovning adabiyotdagi qobiliyati ham bo'y ko'rsatdi. U she'rlar yozib, texnikum devoriy gazetasida e'lon qilib bordi. 1947- 1949-yillarda "Qizil O'zbekiston" ("O'zbekiston ovozi") gazetasiga muharrirlik qiladi. 1949-1950 yillarda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining raisi, 1950-1959-yillarda O'zbekiston Oliy kengashi rayosatining raisi, 1959 -1983 yillarda O'zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi bo'lib ishlaydi.

Sharof Rashidov rahbarlik qilish bilan bir qatorda, adabiyotga muhabbati o'zgacha edi. Adabiyotga muhabbati mumtoz adabiyoti namoyandalari A.Navoiy, Z.M.Bobur ijodiga ehtiromi sabab bo'lgan bo'lsa, yana bir sabab tog'asi Hamid Olimjon ham sabab bo'ldi. Hamid Olimjon iste'dodli shoir edi, jiyaning adabiyotga muhabbati bilar, kerakli maslahatlar berardi. Sharof Rashidovning g'alabaga bag'ishlangan ilk she'riy to'plami "Qahrim" nomi ostida nashr qilinadi. "Tarix hukmi" nomli ilk publistik maqolasi 1949 -yilda nashr qilingan. Ham rahbar, ham adib, ham shoir "Qizil O'zbekiston" gazetasida bosh muharrir, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida raislik qiladi. Inson hayotini ,orzularini, vatanparligini, mehnatsevarligini nazmda, nasrda ifodalay olgan sohir qalb sohibi edi. Barcha asarlari inson qalbiga go'yo yaqin samimiy tuyg'ular ifodasi sifatida kirib keladi. Ijodini o'rganish jarayonida betakror iste'dod sohibining orzu tilaklar his qiladi o'quvchi. Sharof Rashidov badiiy ijodida umuminsoniy qadriyatlar ,qahramonliklar, jasorat, xalqparvarlik bunyodkorlik tushunchalari bilan uyg'unlashdi .Barqarorlik ,jamiyatda adolat ustivorligi, shaxsning erkin va hurfikrlilik asosida faoliyat olib borishi ijtimoiy tizimning ulug'vorligi aks ettirildi. Sharof Rashidov badiiy ijodida umuminsoniy qadriyatlar ,qahramonliklar, jasorat, xalqparvarlik bunyodkorlik tushunchalari bilan uyg'unlashdi .Barqarorlik ,jamiyatda adolat ustivorligi, shaxsning erkin va hurfikrlilik asosida faoliyat olib borishi ijtimoiy tizimning ulug'vorligi aks ettirildi.

"G'oliblar"(1951) -yozuvchining birinchi qissasi bo'lib, urushda keyingi o'zbek xonadonining osoyishtalikka ingan, kimningdir bolasi, kimningdir otasi urushdan qaytmagan ,ayni mehnat qizigan vaqtlari yozilgan.

"Suv keltirgan -elda aziz " maqolining amaldagi isboti qissaning asosini tashkil qiladi. Asarda tasvirlangan Oyqiz, Olimjon, Lolaxon, Halim bobo obrazlari orqali yangi yerlarni o'zlashtirish, suv manbaini ko'paytirish ,mehnatga yangi munosabat qirralari ochiladi. "G'oliblar " asari qahramoni Oyqizning ikki akasi Timur va Alisher urushdan qaytmaydi, bu judolikni ko'tarolmay onasi vafot etadi. Birgina suyanchi -otasi Umurzoq ota bilan urushga ketgan Olimjonning salomat qaytishiga umidvor Oyqiz mehnati, Oltinsoyning g'amda ham bayramda ham bir -birini qo'llab yashagan odamlarning kelajakka bo'lgan ishonchi ,mehnatidan zavq olib ,unumdor yrlarni o'zlashtirish yo'lidagi zahmati qissaning bosh mavzusidir.



Asarda ulug`vorlik muhokamasi ,yuksak burch,mehnat oliy darajada tasvirlandi.Inson ulug`lanishida qalbidagi buyuk muhabbat ahamiyatlidir.Vatanga bo`lgan muhabbati ,sadoqati ham ijobiy tuyg`ular mahsuli natijasidr.Obrazlarda qahramonlik ulugvorlikka xos estetik va axloqiy sifat to`la namoyon bo`ldi.Xalq fidoyilari ,elu –yurt jonkiyarlarining qiyofalari bir vaqtning o`zida ham ulug`vorlikni ,ham mardonavorlikni o`zida jamlay oldi.

“G`oliblar”(1951) –yozuvchining birinchi qissasi bo`lib,urushda keyingi o`zbek xonadonining osoyishtalikka ingan,kimningdir bolasi,kimningdir otasi urushdan qaytmagan ,ayni mehnat qizigan vaqtlari yozilgan.

“Suv keltirgan –elda aziz ”maqolining amaldagi isboti qissaning asosini tashkil qiladi.Asarda tasvirlangan Oyqiz,Olimjon,Lolaxon,Halim bobo obrazlari orqali yangi yerlarni o`zlashtirish,suv manbaini ko`paytirish ,mehnatga yangi munosabat qirralari ochiladi. “G`oliblar ”asari qahramoni Oyqizning ikki akasi Timur va Alisher urushdan qaytmaydi,bu judolikni ko`tarolmay onasi vafot etadi.Birgina suyanchi –otasi Umurzoq ota bilan urushga ketgan Olimjonning salomat qaytishiga umidvor Ouqiz mehnati,Oltinsoyning g`amda ham bayramda ham bir –birini qo`llab yashagan odamlarning kelajakka bo`lgan ishonchi ,mehnatidan zavq olib ,unumdor yrlarni o`zlashtirish yo`lidagi zahmati qissaning bosh mavzusidir

“G`oliblar” qissasi urushdan keying o`zbek xonadonidagi turmush tarsi ifodalangan bo`lib, go`yoki Sh.Rashidov o`zining bolalik taassurotlarini hayotiy voqelikni ifodalaydi. Asarda adib inson sinovlarga chidamligi, bardoshliligi, sadoqati o`z ifodasini topadi.Mehnat insonning nodir fazilati,ulug`vorlikning sababchisi hamda kelajakka bo`lgan ishonchni ifodalashi yoritiladi.

Sharof Rashidovning she`rlari ham o`ziga xos, “Ona nasihati ”she`rida har bir insonning vatan oldidagi burchini eslatib ,mardlikka undaydi:

Nomard bo`lib kunda o`lguncha

Mard bo`lgi-u Vatan deb o`lgin

Onang qilgan eng oily orzu-

Jang ichida qayta tug`ilgin.<sup>1</sup>( “Ona nasihati”Sh.Rashidov)

Bugungi kunda koplav tadqiqotchilar tomonidan Sh. Rashidovning badiiy merosi ilmiy jihatdan o`rganilmoqda. Faylasuf olimi O. J. O`roqova “Kashmir qo`shig`i” qissaning romantik xususiyatlarini (Sh.Rashidovning “Qashmir qo`shig`i”qissasining romantik xususiyatlari maqolasida) ilmiy tahlilida : “Nur va zulmat ,yaxshilik va yomonlik o`rtasidagi kurash,tabiatdagi va inson hayotidagi ezgulik va nur tamoyillari g`alabasi ,hayot va farovonlikning ramzi bo`lgan do`stlik g`oyasi afsonaning asosiy mazmunin tashkil etishini ta`kidlagan.Yanada yorqin yoritilishida rassom Chingiz Axmarov, afsonaning mazmunini juda nozik va chuqur anglab, uni tasviriy obrazlarga mahorat bilan ko`chira olgan. Haqiqiy sana`t asari bo`la oldi, she`riyat va rassomchilikning mutanosibligini ko`rsata bera oldi.”<sup>2</sup> (Sh.Rashidov.Kashmir qo`shig`i qissasidan). Sharof Rashidov nomini tilga olganda millonlab yurtdoshlarimizning qalbida tiliga katta mehr qalqib chiqadi. Bu samimiy mehr, samimiy yodnomalar zamirida fidoyi rahbar va hassos yozuvchining katta zahmati,insoniy fazilatlari mujassamdir.

<sup>1</sup> Sharof Rashidov. G`oliblar.Roman. T. <<Matbuot>>Poligrafi 1981.

<sup>2</sup> Sharof Rashidov .Kashmir qo`shig`i,- T.: <<NISO POLIGRAF>>, 2020.- B.18.



Sharof Rashidov nomini tilga olganda millionlab yurtdoshlarimizning qalbida tiliga katta mehr qalqib chiqadi. Bu samimiy mehr, samimiy yodnomalar zamirida fidoyi rahbar va hassos yozuvchining katta zahmati, insoniy fazilatlari mujassamdir.

Sharof Rashidovning badiiy ijodida estetik muhim bosqichga ko'tarilgan. Hayot haqiqati bu-go'zallik deb biladi. Asarlariga nazr solsak, "Kashmir qo'shig'i" qissasida estetik kategoriyalarda go'zallik, ulug'vorlik hamda ularga zid yonma-yon turuvchi tubanlik, fojiaiylik yorqin, keng ifodalangan. Erta bahorning to'ng'ich guli -Nargiz bilan asalarilar shohi bahodir Bamburning go'zal va pokiza muhabbati, sadoqati aks ettirilgan.

Do'stlar ,to'solmaydi Bo`ron yo`limni ,  
Uzib tashlolmaydi Xorud qo`limni.  
Qumlar olov bo`lib kuydirganda ham,  
Daryolar toshsa ham,men turib bardam.  
O`ylagan o`yidan qaytmaydi dilim,  
Afsus qo`shig`ini aytmaydi tilim.

Nargiz gullar bog`ining hayotbaxsh tongini yangratib, pokiza sevgi haqida kulaydi. Uning qo'shig'i , sabot-matonati , o'z yoriga vafosi bulbullarga va qushlarga bitmas tuganmas sevinch bag'ishlaydi. Bo`ron pokiza muhabbatning dushmani sifatida namoyon bo'ladi. Boronning vujudidan to`zon hidi anqir, chang , xazon to`kilib turardi...

Sharof Rashidov insonning narsa hodisalarga estetik va axloqiy mezonlar bilan yondashishi , hamda ulardan yuksak hayratlanish tuyg`usini hosil qiluvchi estetik hissiyot majmuini ko'rsatib bera oldi.

Sharof Rashidovning 1958-yilda yozgan "Bo`rondan kuchli" asari ko'plab qiziqarli hikoyalar keltirilgan. Asar yozilgach , yeti yashardan yetmish yoshgacha adabiyot muxlislarini o`ziga jalb qila olgan. Umuman olganda Sharof Rashidovning vatan, xalq, millat uchun qilgan xizmatlari unitilmasdir. Vatanning fidoyi farzandi- Sharof Rashidov millionlab qalblarda, bunyodkorlik, ijodkorlik, mehnatsevarlik, oliyanoblik, sadoqat, go'zallik , mehrni uyg`ota olgan buyuk insondir. Zero, buyuk insonlar, mangu barhayotdirlar.

### References:

1. Sharof Rashidov. Kashmir qo'shig'i, -T.: <<NISO POLIGRAFI>>, 2020-B.18.
2. Axmarov Chingiz .Epos -iskusstvo segodnyee .Gazeta <<Sovetskaya kultura>>, 24 iyul, 1969 god
3. Sharof Rashidov G`oliblar. Roman. T. <<Matbuot>> Poligrafi .1981.
4. O`roqova O.J. Kashmir qo'shig'i qissasining romantik xususiyatlari. T. 2017 yil